A) agar ota-onada bu belgilar bo'lmasa, farzandlarning shu belgi bo'yicha tug'ilish ehtimoli 0%
B) **agar ota-onada bu belgilar bo'lmasa, farzandlarning shu belgi bo'yicha tug'ilish ehtimoli 0 yoki 25%**
C) o'g'il va qizlarda bir xil nisbatda uchraydi
D) ikki xil genotip bilan ifodalanadi

250.Odamning barcha sutemizuvchilarga o'xshash belgilari.
A) quloq suprasini harakatlantirish, tishlarning ixtisoslashganligi B) tirnog'ining yassiligi, bosh miyaga ega bo'lishi
C) xorda, nerv nayi, yuragining bo'lishi **D) diafragmaning bo'lishi, 5-6 oyligida embrion jun bilan qoplagan bo'lishi**

251.Filoembriogenezga tegishli belgilarni aniqlang.
1) odamda xordaning bo'lishi; 2) odam embrionida miyaning peshona qismi bo'rtib chiqishi; 3) kitlarda tishlarning so'rilib ketishi;
4) gekkonning ikki kamerali yuragi; 5) g'o'zaning 3,4,5 bo'lakli barglar chiqarishi; 6) itbaliqda yon chiziqlar bo'lishi
A) 1,4,6 **B) 2,3,5** C) 6,2,4 D) 3,1,5

252.Quyidagilardan qaysilari organizmning shaxsiy taraqqiyotida tarixiy rivojlanishni takrorlashga misol bo'la oladi.
1) gekkon embrionida jag'ning oldinga bo'rtib chiqishi; 2) g'o'zaning 3,4,5 bo'lakli barglar chiqarishi; 3) itbaliqda jabra yoriqlarining bo'lishi; 4) g'o'zaning yaxlit barglar hosil qilishi; 5) qizilto'shning ikki kamerali yuragi; 6) odamda nerv nayining bo'lishi; 7) kitlarda tishlarning so'rilib ketishi A) 1,2,5 B) 2,5,7 **C) 3,4,6** D) 3,6,7

253.Odamda A va B genlari bitta xromasomada joylashgan va ular orasidagi masofa 8 Morganidaga teng. C geni boshqa nogomologik xromasomada joylashgan. Barcha belgilari bo'yicha geterozigota organizm hosil qiladigan gametalar va ularning foizi aniqlang.
1) ABC-23; 2) ABc-23; 3) abC-23; 4) abc-23; 5) ABC-12,5; 6) ABc-12,5; 7) abC-12,5; 8) abc-12,5;
9) AbC-2; 10) Abc-2; 11) aBC-2; 12) aBc-2; 13) AbC-12,5; 14) Abc-12,5; 15) aBC-12,5; 16) aBc-12,5
A) 1,2,3,4,5,6,7,8 **B) 1,2,3,4,9,10,11,12** C) 5,6,7,8,9,10,11,12 D) 5,6,7,8,13,14,15,16

254.Odamda A va B genlari bitta xromasomada joylashgan va ular orasidagi masofa 8 Morganidaga teng. C geni boshqa nogomologik xromasomada joylashgan. Barcha belgilari bo'yicha geterozigota organizm tahliliy chatshtirildi. Avlodda noallel dominant A va C genlarining birga uchrash ehtimolini aniqlang? **A) 25** B) 46 C) 48 D) 27

255.Odamda A va B genlari bitta xromasomada joylashgan va ular orasidagi masofa 8 Morganidaga teng. C geni boshqa nogomologik xromasomada joylashgan. Barcha belgilari bo'yicha geterozigota organizm tahliliy chatshtirildi. Avlodda noallel dominant A va B genlarining birga uchrash ehtimolini aniqlang? **A) 46** B) 25 C) 48 D) 50

256.Drozofila pashshasida tananing kulrangliligi qoraligi ustidan, qanotlarining normalligi kaltaligi ustidan ustunlik qiladi. Ko'zlarining qizil bo'lishi oq bo'lishiga nisbatan ustunlik qiladi. Trigeterozigota urg'ochi pashsha hamma belgisi bo'yicha retsessiv erkak pashsha bilan chatshtirilganda, avlodning necha foizi kalta qanotli, kulrang tanali, oq ko'zli bo'ladi?
A) 12,5 **B) 4,25** C) 25 D) 8,5

257.Drozofila pashshasida tananing kulrangliligi qoraligi ustidan, qanotlarining normalligi kaltaligi ustidan ustunlik qiladi. Ko'zlarining qizil bo'lishi oq bo'lishiga nisbatan ustunlik qiladi. Trigeterozigota urg'ochi pashsha hamma belgisi bo'yicha retsessiv erkak pashsha bilan chatshtirilganda, avlodning necha foizi kalta qanotli, qora tanali, oq ko'zli bo'ladi?
A) 25 **B) 20,75** C) 50 D) 12,5

258.Glukozaning to'liqsiz va to'liq parchalanishidan 8800 kJ energiya va 118 ta ATF hosil bo'ldi. Necha foiz glukoza to'liq parchalangan? **A) 60** B) 40 C) 30 D) 70

259. 7 mol glyukoza parchalanganda 122 mol ATF hosil bo'ldi.To'liq parchalanmagan glyukoza molekulalarini hosil qilish uchun o'simlik qancha ATF sarflagan? A) 126 B) 57,79 C) 54 **D) 72**

260.Glyukoza parchalanganda 206 ta ATF hosil bo'ldi. To'liq parchalangan glyukoza molekulalarini hosil qilish uchun o'simlik 90 mol ATF sarflagan bo'lsa, necha mol glyukoza parchalangan? A) 5,42 **B) 13** C) 10 D) 5

261.Glyukoza parchalanganda 9320 kj issiqlik energiyasi chiqdi, shu glyukozani hosil qilish uchun o'simlik 180 mol ATF sarfladi. Glyukozaning necha foizi to'liq parchalangan. **A) 70** B) 30 C) 40 D) 60

262.Noma'lum massali glyukoza parchalanganda 4080 kj issiqlik energiyasi va 118 ATF chiqdi, glyukozaning necha foizi to'liq parchalanmagan A) 60 B) 20 C) 80 **D) 40**

263.Glyukoza to'liq parchalanganda 8960 kj issiqlik energiyasi ajraldi. Shu glyukoza o'simlik hujayrasida achiganda qancha ATF hosil bo'ladi. A) 266 B) 252 **C) 14** D) 7

264. 8 mol glyukoza parchalandi. Shundan ikki moli to'liq parchalandi. Jami qancha ATF hosil bo'ldi.
A) 304 B) 72 **C) 88** D) 76

265.Odamning xordalilarga o'xshash xususiyatini belgilang.
A) nerv nayi B) tirnog'ining yassiligi C) bachadon D) diafragma

266.Odamning primatlarga o'xshash xususiyatini belgilang.
A) nerv nayi **B) tirnog'ining yassiligi** C) bachadon D) diafragma

267.Odamning sutemizuvchilarga o'xshash xususiyatini belgilang.
A) nerv nayi B) tirnog'ining yassiligi C) bachadon **D) diafragma**

268.Odamning yo'ldoshlilarga o'xshash xususiyatini belgilang.
A) nerv nayi B) tirnog'ining yassiligi **C) bachadon** D) diafragma

269.Odamning xordalilarga o'xshash xususiyatlarini belgilang.
1) nerv nayi; 2) tishlarining ixtisoslashganligi; 3) tirnog'ining yassiligi; 4) xorda; 5) bachadon; 6) peshonaning bo'rtib chiqishi; 7) diafragma; 8) umurtqa pog'onasi A) 1,8 B) 3,6 **C) 4,1** D) 7,5

270.Odamning sutemizuvchilarga o'xshash xususiyatlarini belgilang.
1) nerv nayi; 2) tishlarining ixtisoslashganligi; 3) tirnog'ining yassiligi; 4) xorda; 5) bachadon; 6) peshonaning bo'rtib chiqishi; 7) diafragma; 8) umurtqa pog'onasi A) 8,3 B) 6,7 **C) 2,7** D) 5,4

271.Suv qaroqchisining ginko bilobadan farq qiluvchi belgilarini aniqlang.
1) urug' hosil qilishi; 2) gul hosil qilishi; 3) meva hosil qilishi; 4) urug'kurtakning tuguncha ichida yetilishi; 5) qo'sh urug'lanish; 6) to'qimalar mavjudligi A) 1,2,3,4 **B) 2,3,4,5** C) 2,4,5,6 D) 6,1,2,3

272.Gulli o'simliklar uchun xos bo'lmagan aromorfozlarni belgilang.
1) o'tkazuvchi sistema; 2) gulning paydo bo'lishi; 3) chetdan changlanish; 4) to'pgul; 5) qo'sh urug'lanish; 6) mevaning paydo bo'lishi; 7) ildizning hosil bo'lishi; 8) chang naychasi; **A) 1,4,7,8** B) 2,3,4,5 C) 3,7,1,6 D) 3,4,2,8

273.Funariya, qirqquloq, qirqbo'g'imlarning umumiy bo'lgan xususiyatlarini belgilang.
1) jinsiy va jinssiz bo'g'inlarning gallanishi; 2) ko'p hujayrali jinsiy organlar; 3) ildiz; 4) to'pgul; 5) sporangiy; 6) poya; 7) ko'p xivchinli spermatozoid; 8) spora; 9) sorus; A) 9,8,2,5 B) 3,4,1,7 **C) 1,2,5,6** D) 9,3,6,1

274.Funariyaning hayot siklini ketma-ketlikda to'g'ri belgilang.
A) funariya – spora – yashil ipcha – kurtakchalar – gametafit – anteridiy, arxegoniy – tuxum hujayra, spermatozoid – zigota – sporofit
B) gametafit – anteridiy, arxegoniy – tuxum hujayra, spermatozoid – zigota – sorus – spora – yashil ipcha – kurtakchalar
C) funariya – spora – yashil ipcha – kurtakchalar – anteridiy, arxegoniy – tuxum hujayra, spermatozoid – zigota – gametofit
D) anteridiy, arxegoniy – tuxum hujayra, spermatozoid – zigota – sporofil – spora – yashil ipcha – kurtakchalar

275.Qirqquloqning hayot siklini ketma-ketlikda to'g'ri belgilang.
A) spora – yashil ipcha – kurtakchalar – gametafit – anteridiy, arxegoniy – tuxum hujayra, spermatozoid – zigota – sporofit
B) gametafit – anteridiy, arxegoniy – tuxum hujayra, spermatozoid – zigota – sorus – spora – yashil ipcha – kurtakchalar
C) sorus – spora – gametofit – anteridiy, arxegoniy – tuxum hujayra, spermatozoid – zigota – sporofit
D) anteridiy, arxegoniy – tuxum hujayra, spermatozoid – zigota – sporofil – spora – yashil ipcha – kurtakchalar

276.Murakkab (a) va oddiy (b) yonbargchali, barglari poyada ketma-ket o'rnashgan ko'p yillik o'simliklarni belgilang.
1) namatak; 2) kiyiko't; 3) yeryong'oq; 4) olma; 5) dalachoy; 6) nok; 7) liftok; 8) saksovul; 9) mosh

A) a-2,1; b-8,9 B) a-2; b-3,4 **C) a-1; b-4,6** D) a-7,1; b-3

277.Guli qiyshiq murakkab bargli bir yillik o'simliklarni aniqlang.
1) g'o'za; 2) yeryong'oq; 3) sebarga; 4) olma; 5) loviya; 6) yantoq; 7) na'matak; 8) beda
A) 2,5 B) 3,6 C) 4,7 D) 1,8

278.Guli qiyshiq murakkab bargli ko'p yillik o'simliklarni aniqlang.
1) g'o'za; 2) yeryong'oq; 3) sebarga; 4) olma; 5) loviya; 6) yantoq; 7) na'matak; 8) beda
A) 2,5 **B) 3,6** C) 4,7 D) 1,8

279.Azotning davriy aylanishiga xos bo'lmagan xususiyatlarni aniqlang.
1) ko'k-yashil suvo'tlar fiksatsiyalaydi; 2) ammonifikator bakteriyalari xemosintez qiladi; 3) bakteriya tomonidan parchalanib elementar ko'rinishda atmosferaga ajratiladi; 4) nafas olish jarayonida atmosferaga oksidli gaz holida ajratiladi; 5) nitrifikatorlar ammiakni o'zlashtiradi; 6) oqsil parchalanishidan ammiak hosil bo'ladi
A) 1,6,3 **B) 2,4,5** C) 6,4,1 D) 5,3,2

280.Azotning davriy aylanishiga xos bo'lgan xususiyatlarni aniqlang.
1) ko'k-yashil suvo'tlar fiksatsiyalaydi; 2) ammonifikator bakteriyalari xemosintez qiladi; 3) bakteriya tomonidan parchalanib elementar ko'rinishda atmosferaga ajratiladi; 4) nafas olish jarayonida atmosferaga oksidli gaz holida ajratiladi; 5) nitrifikatorlar ammiakni o'zlashtiradi; 6) oqsil parchalanishidan ammiak hosil bo'ladi
A) 1,6,3 B) 2,4,5 C) 6,4,1 D) 5,3,2

281.Birinchi signal tizimiga tegishli bo'lgan javoblarni tanlang.
1) to'tiqushning iboralarni takrorlashi; 2) dars tinglash; 3) asar o'qish; 4) bolani konfetni ko'rganda xarxasha qilishi; 5) uch yoshli bolaning 2000 so'z aytishi; **A) 1,4** B) 5,1 C) 2,3 D) 1,2,3,4

282.Ikkinchi signal tizimiga tegishli bo'lgan javoblarni tanlang.
1) to'tiqushning iboralarni takrorlashi; 2) dars tinglash; 3) asar o'qish; 4) bolani konfetni ko'rganda xarxasha qilishi; 5) uch yoshli bolaning 2000 so'z aytishi; A) 1,4 B) 5,1 **C) 2,3** D) 1,2,3,4

283.Qoraqurtning daryo qisqichbaqasi (a) va chayonga (b) o'xshash belgilari to'g'ri berilgan javobni aniqlang.
1) ko'zining tuzilishi; 2) tana qismlari; 3) nafas olish organi; 4) yurish oyoqlari soni; 5) tuxum qo'yib ko'payishi; 6) tirik tug'ishi; 7) tutqich to'r to'qishi; 8) atrof-muhitga moslanishi
A) a-1,8; b-6,4 B) a-4,5; b-3,8 C) **a-5,2; b-8,1** D) a-2,4,5; b-1,3,8

284.Qoraqurtning yashil bronza qo'ng'iziga o'xshash belgilari berilgan javobni aniqlang.
1) ochiq qon aylanish sistemasi; 2) tana qismlari; 3) nafas olish sistemasi; 4) ko'zining tuzilishi; 5) tuxum qo'yib ko'payishi; 6) atrof-muhitga moslanishi **A) 1,5** B) 2,4,6 C) 3,2 D) 6,1

285.Odamning qaysi organlarida askaridaning lichinkasi (a) va tuxumi (b) rivojlanishi mumkin?
A) a-ichak, yurak; b-jigar, ichak **B) a-jigar, o'pka; b-ichak** C) a-miya, jigar; b-yurak D) a-ichak; b-og'iz, o'pka, yurak

286.Darvin qayd etgan muayyan (a), nomuayyan (b) tashqi muhit ta'sirlari to'g'ri berilgan javobni aniqlang.
1) organizmning keyingi avlodlari o'zgaradi; 2) tashqi muhit ta'siri barcha organizmlarda namoyon bo'ladi; 3) shaxsiy o'zgaruvchanlik ro'y beradi; 4) tashqi muhit ta'siri ayrim organizmlarda namoyon bo'ladi; 5) guruhli o'zgaruvchanlik ro'y beradi; 6) o'zgarish belgilari organizmning o'zida namoyon bo'ladi A) a-3,4; b-2,1 B) **a-2,5; b-4,3** C) a-6,5; b-1,4 D) a-2,6; b-2,3

287.Darvin qayd etgan bevosita (a), bilvosita (b) tashqi muhit ta'sirlari to'g'ri berilgan javobni aniqlang.
1) organizmning keyingi avlodlari o'zgaradi; 2) tashqi muhit ta'siri barcha organizmlarda namoyon bo'ladi;
3) shaxsiy o'zgaruvchanlik ro'y beradi; 4) tashqi muhit ta'siri ayrim organizmlarda namoyon bo'ladi; 5) guruhli o'zgaruvchanlik ro'y beradi; 6) o'zgarish belgilari organizmning o'zida namoyon bo'ladi
A) a-6; b-1 B) a-2,4; b-1,5 C) a-2; b-4 D) a-3; b-5

288.Geterotrof (a), xemotrof (b), fototrof (c), avtotrof (d) organizmlar to'g'ri juftlangan javobni aniqlang.
1) o'simlik 2) zamburug' 3) bakteriya
A) a-2; b-1,3; c-1 B) a-1,2,3; b-2,3; d-1 C) a-3; b-3,1; c-1,2,3 **D) a-2,3; b-3; d-1,3**

289.Geterotrof (a), xemotrof (b), fototrof (c), avtotrof (d) organizmlar to'g'ri juftlangan javobni aniqlang.
1) kanna; 2) tuganak bakteriya; 3) baliqko'z; 4) detritofag; 5) qiloyoq; 6) temir bakteriyasi; 7) xrokok; 8) kladoniya; 9) tuproq bakteriyasi; 10) qora suvke; 11) nitrifikator bakteriyasi; 12) kalina
A) a-5,10; b-7,11; c-8,3; d-12,6 B) a-10,9; b-4,6; c-12,2; d-8,9 C) a-1,5,10; b-6,11; c-2,12; d-9 **D) a-4,5; b-2,6; c-3,8; d-11,7**

290.Sezgi organlarini bosh miyadagi quyi markazlarini belgilang.
a-ko'rish b-muvozanat 1) o'rta miyadagi oldingi 2 ta tepalik; 2) o'rta miyadagi orqa 2 ta tepalik; 3) miyacha; 4) orqa miyaning bo'yin segmenti; 5) o'rta miyadagi oldingi 4 ta tepalik; 6) yarim sharlarning ensa bo'lagi; 7) yarim sharlarning chakka bo'lagi
A) a-1; b-3 B) a-5; b-3 C) a-2; b-7 D) a-1,6; b-3

291.Sezgi organlarini bosh miyadagi quyi markazlarini belgilang.
a-eshitish b-barmoq terisi 1) o'rta miyadagi oldingi 2 ta tepalik; 2) o'rta miyadagi orqa 2 ta tepalik; 3) miyacha; 4) orqa miyaning bo'yin segmenti; 5) o'rta miyadagi oldingi 4 ta tepalik; 6) yarim sharlarning ensa bo'lagi; 7) yarim sharlarning chakka bo'lagi
A) a-2,7; b-3 **B) a-2; b-4** C) a-7; b-5 D) a-1,2; b-4

292.Hozirgi vaqtdagi hasharotxo'rlar turkumining 1 ta turdan iborat quruqlikda tarqalgan vakillarini biologic qonuniyat bilan mos ravishda belgilang
a-biologik progress b-biologik regress 1) tipratikan; 2) sakrovchi; 3) krot; 4) vixuxol; 5) yerqazar; 6) kutora;
A) a-1,2,4 B) b-2,5 **C) a-6,2** D) b-4,6

293.Hozirgi vaqtdagi hasharotxo'rlar turkumining 2 ta turdan iborat suvda hamda quruqlikda tarqalgan vakillarini biologic qonuniyat bilan mos ravishda belgilang
a-biologik progress b-biologik regress 1) tipratikan; 2) sakrovchi; 3) krot; 4) vixuxol; 5) yerqazar; 6) kutora;
A) a-3,4,5 **B) b-3,4** C) a-2,6,5 D) b-1,2

294.Turpning somatic hujayrasida 16 ta autosoma bo'lsa, bo'linayotgan hujayraning anafaza bosqichida xromasomalar sonini aniqlang. A) 18 **B) 36** C) 72 D) 32

295.Turpning somatic hujayrasida 18 ta xromasoma bo'lsa, bo'linayotgan hujayraning anafaza bosqichida xromatidlar sonini aniqlang.
A) 18 B) 36 **C) 72** D) 32

296.Karam hujayrasida mitoz siklining G_2 bosqichidagi DNK sonini aniqlang A) 16 B) 18 C) 32 **D) 36**

297.Karam hujayrasida mitoz siklining G_2 bosqichidagi xromasoma sonini aniqlang A) 16 **B) 18** C) 32 D) 36

298.Karam hujayrasida mitoz siklining G_2 bosqichidagi xromatidlar sonini aniqlang A) 16 B) 18 C) 32 **D) 36**

299.Gulli o'simliklarda jinsiy hujayralarning rivojlanishi noto'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
A) arxeospora dastlab meyoz, keyin 3 marta mitoz yo'li bilan bo'linadi
B) mikrospora mitoz yo'li bilan bo'linib, 2 ta diploid to'plamli hujayra hosil qiladi
C) generative hujayra chang nayida 2 ta spermi hosil qiladi
D) yetilgan murtak xaltachasida 8 ta gaploid to'plamli hujayra bo'ladi

300.Polidaktiliya genlarining irsiylanishi haqidagi to'g'ri fikrni toping.
A) ota-onada bu belgi bo'lsa, farzandlarning shu belgi bo'yicha tug'ilish ehtimoli 75 yoki 100%
B) agar ota-onada bu belgilar bo'lmasa, farzandlarning shu belgi bo'yicha tug'ilish ehtimoli 0 yoki 25%
C) ota-onada bu belgi bo'lsa, avlodlarda ham shu belgi 100% bo'ladi
D) jinsiy xromasomaga birikkan holda dominant irsiylanadi

301. III qon guruhli odamning buyrak venasi (a), birlamchi siydik (b), ikkilamchi siydik (c) tarkibidagi moddalarni aniqlang.
1) glukoza; 2) kreatinin; 3) ferment; 4) mochevina; 5) arginin; 6) antitana; 7) qoldiq azot; 8) vitamin
A) a-1,5,8; b-5,3,8; c-7,2 B) a-4,2; b-1,3,6,8; c-2,4,7 **C) a-3,1,6; b-1,5,8; c-2,4** D) a-6,8; b-1,7,2; c-4,2

302.Gomozigota II va III qon guruhga ega ota-ona farzand(lar)i buyrak venasi (a), birlamchi siydigi (b), eritrositlar (c) da qanday moddalar bo'ladi
1) shakar; 2) ferment; 3) alanin; 4) aglyutinin α; 5) qoldiq azot; 6) aglyutinogen A; 7) aglyutinogen B; 8) mochevina;
A) a-1,2; b-3,1; c-6,7 B) a-4,3; b-2,1; c-4,6 C) a-1,2,3; b-1,3,8; c-7,6 D) a-4; b-2,3; c-6

303.Barcha xordalilar (a), umurtqalilar (b), sutemizuvchilar (c) uchun umumiy belgilarni aniqlang.
1) ixtisoslashgan tishlar; 2) xorda; 3) nerv nayi; 4) orqa miya; 5) diafragma; 6) 5 bo'limli bosh miya; 7) yo'ldosh
A) a-2,3; b-4,6; c-5 B) a-3,4; b-6; c-7,1 C) a-2; b-1,4,6; c-7,5 D) a-4; b-6; c-7

304.Zig'ir (a), soya (b) o'simligining kelib chiqish markazini aniqlang.
A) a-g'arbiy Osiyo; b- g'arbiy Osiyo B) a- sharqiy Osiyo; b- g'arbiy Osiyo
C) a- g'arbiy Osiyo; b- sharqiy Osiyo D) a-markaziy Amerika; b- shaqiy Osiyo

305.Tariq (a), makkajo'xori o'simligining kelib chiqish markazini aniqlang.

A) a-sharqiy Osiyo; b- janubiy Amerika **B) a- sharqiy Osiyo; b- markaziy Amerika**
C) a- g'arbiy Osiyo; b- sharqiy Osiyo D) a-markaziy Amerika; b- shaqiy Osiyo

306.Lansetnik qon aylanish sistemasi to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.
A) yurak –> qorin aortasi –> jabra kapilyarlari –> orqa aorta –> to'qima va organlar
B) qorin aortasi –> jabra kapilyarlari –> orqa aorta –> to'qima va organ kapilyarlari
C) orqa aorta –> jabra kapilyarlari –> qorin aortasi -> to'qima va organlar
D) yurak qorinchasi -> aorta -> teri kapilyarlari -> to'qima va organlar -> yurak bo'lmasi

307.Semganing qon aylanish sistemasi to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.
Lansetnik qon aylanish sistemasi to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.
A) yurak bo'lmasi –> qorin aortasi –> jabra kapilyarlari –> orqa aorta –> to'qima va organlar -> yurak qorinchasi
B) qorin aortasi –> jabra kapilyarlari –> orqa aorta –> to'qima va organ kapilyarlari
C) orqa aorta –> jabra kapilyarlari –> qorin aortasi -> to'qima va organlar
D) yurak qorinchasi -> qorin aorta -> jabra kapilyarlari -> orqa aorta -> to'qima va organlar -> yurak bo'lmasi

308.Midiya qon aylanish sistemasi to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.
A) yurak bo'lmasi –> arteriya –> to'qima va organlar –> qon tomiri –> jabra -> yurak qorinchasi
B) qorin aortasi –> jabra kapilyarlari –> orqa aorta –> to'qima va organ kapilyarlari
C) yurak qorinchasi –> arteriya –> to'qima va organlar –> qon tomiri –> jabra -> yurak bo'lmasi
D) yurak –> arteriya –> to'qima va organlar –> qon tomiri –> o'pka -> yurak

309.Suv shillig'i qon aylanish sistemasi to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.
A) yurak bo'lmasi –> arteriya –> to'qima va organlar –> qon tomiri –> o'pka -> yurak qorinchasi
B) qorin aortasi –> jabra kapilyarlari –> orqa aorta –> to'qima va organ kapilyarlari
C) yurak qorinchasi –> arteriya –> to'qima va organlar –> qon tomiri –> jabra -> yurak bo'lmasi
D) yurak –> arteriya –> to'qima va organlar –> qon tomiri –> o'pka -> yurak

310.Shinshilla (I), boltayutar (II) yuragidan chiquvchi qon tomirlarini to'g'ri ko'rsating.
1) o'ng bo'lmacha 2) chap bo'lmacha 3) chap qorincha 4) o'ng qorincha
a-o'pka venasi; b-o'ngga yo'naluvchi aorta; c-buyrak arteriyasi; d-o'pka arteriyasi; e-pastki kovak vena; f-chapga yo'naluvchi aorta
A) I-3-b, 4-d; II-3-f, 4-b **B) I-3-f, 4-d; II-3-b, 4-d** C) I-1-e, 2-a; II-1-e, 2-a D) I-3-f, 4-d; II-3-f, 4-d

311.Murakkab oqsilga xos belgini aniqlang.
A) distillangan suvda eriydi B) glikolipid misol bo'ladi
C) to'rtta polipeptid zanjirdan tuzilgan D) tarkibida faqat aminokislotalar bo'ladi

312.i-RNK (a) va DNK (b) molekulalariga xos xususiyatlarni juftlang
1) endonukleazalar tomonidan parchalanadi; 2) aminokislotalar tashiydi; 3) transkripsiya natijasida hosil bo'ladi; 4) translyatsiyada qatnashadi; 5) tarkibida timin va riboza bo'ladi; 7) teskari transkripsiya natijasida hosil bo'ladi; 8) translyatsiyada qatnashmaydi; 9) tarkibida guanin va riboza bo'ladi; 10) antikodonga ega; 11) aminokislota kodlaydi; 12) kodonga ega
A) a-3,4,11; b-1,8,7 B) a-1,9,12; b-4,11,5 C) a-4,2,10; b-7,1,8 D) a-1,7,9; b-1,4,11

313.t-RNK (a) va DNK (b) molekulalariga xos xususiyatlarni juftlang
1) endonukleazalar tomonidan parchalanadi; 2) aminokislotalar tashiydi; 3) transkripsiya natijasida hosil bo'ladi; 4) translyatsiyada qatnashadi; 5) tarkibida timin va riboza bo'ladi; 7) teskari transkripsiya natijasida hosil bo'ladi; 8) translyatsiyada qatnashmaydi; 9) tarkibida guanin va riboza bo'ladi; 10) antikodonga ega; 11) aminokislota kodlaydi; 12) kodonga ega
A) a-3,4,11; b-1,8,7 B) a-1,9,12; b-4,11,5 **C) a-4,2,10; b-7,1,8** D) a-1,7,9; b-1,4,11

314.Olchaga nisbatan 3 barobar ko'p xromasomaga ega o'simlikning mitoz sikli anafaza oxirida xromasoma sonini aniqlang.
A) 96 **B) 192** C) 48 D) 384

315.Olchaga nisbatan 3 barobar ko'p xromasomaga ega o'simlikning mitoz sikli anafaza bosqichida qutblarga nechtadan xromasoma tarqalishini aniqlang. **A) 96** B) 192 C) 48 D) 384

316.Olchaga nisbatan 3 barobar ko'p xromasomaga ega o'simlikning mitoz sikli anafaza oxirida xromatid sonini aniqlang.
A) 96 B) 192 C) 48 **D) 384**

317.Olchaga nisbatan 3 barobar ko'p xromasomaga ega o'simlikning mitoz sikli interfazadan so'ng DNK sonini aniqlang.
A) 96 **B) 192** C) 48 D) 384

318.Olchaga nisbatan 3 barobar ko'p xromasomaga ega o'simlikning mitoz sikli interfazadan so'ng mikronaychalar sonini aniqlang.
A) 54 B) 108 **C) 0** D) 27

319.Organizmlarning jinsiy ko'payishiga xos bo'lgan javoblarni aniqlang
1) qarag'ayning meva hosil qilishi; 2) partonogenez; 3) hujayralarning mitoz bo'linishi hisobiga avlod hosil bo'lishi; 4) spora orqali ko'payish; 5) kvakshaning tashqi urug'lanishi; 6) molodiloning ajratuvchi kurtakchalar bilan ko'payishi; 7) achitqining zigota hosil qilishi; 8) shizogoniya; 9) zuhrasochda urug' hosil bo'lishi **A) 1,5,7** B) 2,7,9 C) 4,6,8 D) 8,2,3

320.Organizmlarning jinssiz ko'payishiga xos bo'lgan javoblarni aniqlang
1) qarag'ayning meva hosil qilishi; 2) partonogenez; 3) hujayralarning mitoz bo'linishi hisobiga avlod hosil bo'lishi; 4) spora orqali ko'payish; 5) kvakshaning tashqi urug'lanishi; 6) molodiloning ajratuvchi kurtakchalar bilan ko'payishi; 7) achitqining zigota hosil qilishi; 8) shizogoniya; 9) zuhrasochda urug' hosil bo'lishi A) 1,5,7 B) 2,7,9 **C) 4,6,8** D) 8,2,3

321.Tuxum hujayraning urug'lanishi bilan bog'liq bo'lgan xodisalarni aniqlang.
1) endosperm hosil bo'lishi; 2) erkak ari hosil bo'lishi; 3) magnoliyaning zigota hosil qilishi; 4) yasmiqda murtak hosil bo'lishi; 5) qirqquloqda sporalarning yetilishi; 6) archada urug'ning hosil bo'lishi; 7) qarag'ayda meva hosil bo'lishi; 8) lolada to'pgulning paydo bo'lishi A) 2,4,6 B) 1,2,5 C) 6,7,8 **D) 4,3,6**

322.Tuxum hujayraning urug'lanishi bilan bog'liq bo'lmagan xodisalarni aniqlang.
1) endosperm hosil bo'lishi; 2) erkak ari hosil bo'lishi; 3) magnoliyaning zigota hosil qilishi; 4) yasmiqda murtak hosil bo'lishi; 5) qirqquloqda sporalarning yetilishi; 6) archada urug'ning hosil bo'lishi; 7) qarag'ayda meva hosil bo'lishi; 8) lolada to'pgulning paydo bo'lishi A) 4,7,8 **B) 1,2,5** C) 6,5,1 D) 3,2,8

323.Qaysi javobda keltirilgan o'simliklardagi changchilar soni ortib borishi to'g'ri keltirilgan.
1) namatak guli; 2) itqovunning urug'chili guli; 3) lola; 4) yasmiq; 5) qovoqning changchili guli; 6) g'o'za
A) 1-4-3-5 B) 6-4-5-3-2 C) 5-3-4-6 D) 1,2-4-5-3

324.Kordait bilan qirqquloqning o'xshash belgilarini aniqlang.
1) arxegoniyda tuxum hujayraning hosil bo'lishi; 2) urug'lanish; 3) anteridiyda spermatozoidlarni yetilishi; 4) changlanish; 5) zigotadan murtakning hosil bo'lishi; 6) urug' hosil qilishi; 7) to'qima, organlarni mavjudligi; 8) changning hosil bo'lishi
A) 3,1,7 **B) 1,2,5** C) 2,6,7 D) 4,2,8

325.Kordait bilan qirqquloqning uchun o'xshash bo'lmagan belgilarini aniqlang.
1) arxegoniyda tuxum hujayraning hosil bo'lishi; 2) urug'lanish; 3) anteridiyda spermatozoidlarni yetilishi; 4) changlanish; 5) zigotadan murtakning hosil bo'lishi; 6) urug' hosil qilishi; 7) to'qima, organlarni mavjudligi; 8) changning hosil bo'lishi
A) 1,3,4 B) 2,6,7 C) 5,8,3 **D) 3,4,8**

326.Uy pashshsining somatic hujayrasida xromasoma soni drozofilaga nisbatan 4 taga ko'p bo'lsa, shu hujayra siklining anafaza bosqichida qutblarga nechtadan xromasoma tarqalishini aniqlang. A) 32 B) 48 **C) 12** D) 24

327.Uy pashshsining somatic hujayrasida xromasoma soni drozofilaga nisbatan 4 taga ko'p bo'lsa, mitoz sikli anafaza oxirida xromasoma sonini aniqlang. A) 32 B) 48 C) 12 **D) 24**

328.Uy pashshsining somatic hujayrasida xromasoma soni drozofilaga nisbatan 4 taga ko'p bo'lsa, mitoz sikli anafaza oxirida xromatid sonini aniqlang. A) 32 **B) 48** C) 12 D) 24

329.Uy pashshsining somatic hujayrasida xromasoma soni drozofilaga nisbatan 4 taga ko'p bo'lsa, mitoz sikli interfazadan so'ng DNK sonini aniqlang. A) 32 B) 48 C) 12 **D) 24**

330.Uy pashshsining somatic hujayrasida xromasoma soni drozofilaga nisbatan 4 taga ko'p bo'lsa, mitoz sikli interfazadan so'ng xromatid sonini aniqlang. A) 32 B) 48 C) 12 **D) 24**

331.Katta yoshdagi erkak kishining og'iz bo'shlig'ida kichik oziq tishlarining qoziq tishlariga bo'lgan nisbatini aniqlang.
A) 1:2 B) 3:1 **C) 2:1** D) 1:1

332.Katta yoshdagi erkak kishining og'iz bo'shlig'ida katta oziq tishlarining qoziq tishlariga bo'lgan nisbatini aniqlang.
A) 1:2 **B) 3:1** C) 2:1 D) 1:1

333.Katta yoshdagi erkak kishining og'iz bo'shlig'ida qoziq tishlarining qoziq tishlariga bo'lgan nisbatini aniqlang.
A) 1:2 B) 3:1 **C) 2:1** D) 1:1

334.Katta yoshdagi erkak kishining og'iz bo'shlig'ida kichik oziq tishlarining kurak tishlariga bo'lgan nisbatini aniqlang.

A) 1:2 B) 3:1 C) 2:1 **D) 1:1**

335.Katta yoshdagi erkak kishining og'iz bo'shlig'ida kichik oziq tishlarining katta oziq tishlariga bo'lgan nisbatini aniqlang.
A) 1:2 **B) 1:1,5** C) 2:1 D) 1:1

336.Koala (a), kojan (b), kaputsin (c) ga xos belgilarni juftlang.
1) qo'lqanotlilar turkumi vakili; 2) kichik va zaif bola tug'adi; 3) kapalak qanoti bilan anologik organga ega;
4) ultra tovushdan foydalanadi; 5) primatlar turkumi vakili; 6) rang ajrata oladi; 7) kloakaga ega; 8) tuxum qo'yib ko'payadi;
9) xaltalilar kenja sinfiga mansub; 10) bolasi pat bilan qoplangan
A) a-7,8; b-10,4; c-6,8 B) a-4,9; b-6,8; c-5,2 C) a-9,6; b-4,2; c-6,5 **D) a-2,9; b-1,3; c-5,6**

337.O'rdak bilan o'rdakburunning o'xshash bo'lgan belgilarini aniqlang.
1) bolasini sut bilan boqadi; 2) oyoq barmoqlari orasida suzgich pardasi bo'ladi; 3) kloakaga ega; 4) bolasi patli tug'iladi; 5) tirik qazilma; 6) tuxum qo'yib ko'payadi; 7) tumshug'i uzun; 8) tanasi uzun qillar bilan qoplangan
A) 6,2,7 B) 1,5,4 C) 7,3,8 D) 2,3,4

338.O'rdak bilan o'rdakburunning o'xshash bo'lmagan belgilarini aniqlang.
1) bolasini sut bilan boqadi; 2) oyoq barmoqlari orasida suzgich pardasi bo'ladi; 3) kloakaga ega; 4) bolasi patli tug'iladi; 5) tirik qazilma; 6) tuxum qo'yib ko'payadi; 7) tumshug'i uzun; 8) tanasi uzun qillar bilan qoplangan
A) 6,2,7 **B) 1,5,4** C) 8,2,1 D) 4,5,6

339.Arxeopteriks bilan tuyaqushning o'xshash bo'lgan belgilarini aniqlang.
1) orqa oyog'idagi barmoqlar soni; 2) qanotining borligi; 3) jag'ida tishlarning bo'lishi; 4) tanasining pat bilan qoplanganligi;
5) tuxum qo'yib ko'payishi; 6) tirik qazilma; 7) tashqi urug'lanish
A) 2,6 B) 3,1 **C) 2,5** D) 7,4

340.Arxeopteriks bilan tuyaqushning o'xshash bo'lmagan belgilarini aniqlang.
1) orqa oyog'idagi barmoqlar soni; 2) qanotining borligi; 3) jag'ida tishlarning bo'lishi; 4) tanasining pat bilan qoplanganligi;
5) tuxum qo'yib ko'payishi; 6) tirik qazilma; 7) tashqi urug'lanish
A) 2,6 B**) 3,1** C) 2,5 D) 6,3

341.Himoya rangiga ega yashil bo'lmagan hayvonlarni belgilang.
1) kurapatka; 2) beshiktervatar; 3) ko'lbuqa; 4) tulki; 5) gornostoy; 6) korall aspidi; 7) suvarak; 8) oynasimon kapalak; 9) ninachi
A) 1,4,5 B) 8,2 C) 6,7 D) 2,9

342.Himoya rangiga ega yashil bo'lgan hayvonlarni belgilang.
1) kurapatka; 2) beshiktervatar; 3) ko'lbuqa; 4) tulki; 5) gornostoy; 6) korall aspidi; 7) suvarak; 8) kallima;
9) ninachi A) 1,4,5 B) 8,2 C) 6,7 **D) 2,9**

343.Morfologik mezonga asoslangan belgilar to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.
1) qisqichbaqa tanasining boshko'krak va qorindan iboratligi; 2) pashshaning murakkab ko'zi; 3) qisqichbaqa tuxumlarini qorin oyoqlarida olib yurishi; 4) sovuqqonlilarning daraxt tagida karaxt yotishi; 5) dengiz otchasi tumlarini qornida olib yurishi;
6) ko'p bargli va sariq gulli lyupinglarning oqsilidagi farq **A) 1,2** B) 3,4,5 C) 4,6 D) 3,5

344.Fiziologik mezonga asoslangan belgilar to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.
1) qisqichbaqa tanasining boshko'krak va qorindan iboratligi; 2) pashshaning murakkab ko'zi; 3) qisqichbaqa tuxumlarini qorin oyoqlarida olib yurishi; 4) sovuqqonlilarning daraxt tagida karaxt yotishi; 5) dengiz otchasi tumlarini qornida olib yurishi;
6) ko'p bargli va sariq gulli lyupinglarning oqsilidagi farq A) 1,2 B) 3,4,5 C) 4,6 **D) 3,5**

345.Bir turkumga mansub bo'lgan hayvonlarni belgilang.
1) biy=falanga; 2) manta=dengiz tulkisi; 3) butli o'rgimchak=biy; 4) delfin=kit akulasi; 5) falanga=chayon; 6) ilvirs=norka;
7) suvsar=sug'ur; 8) chivin=so'na A) 4,1,7 **B) 6,3,2** C) 1,8,3 D) 5,2,6

346.Bir turkumga mansub bo'lmagan hayvonlarni belgilang.
1) biy=falanga; 2) manta=dengiz tulkisi; 3) butli o'rgimchak=biy; 4) delfin=kit akulasi; 5) falanga=chayon; 6) ilvirs=norka;
7) suvsar=sug'ur; 8) chivin=so'na **A) 4,1,7** B) 6,3,2 C) 1,8,3 D) 5,2,6

347.Quyidagi organizmlar orasidan ikkilamchi konsumentlarni toping.
1) tukli; 2) ilon; 3) lochin; 4) kalina; 5) tuvaloq; 6) quyon; 7) sarisor; 8) kaltakesak; 9) qiziltikan;
10) chigirtka **A) 1,2,8** B) 5,6,10 C) 2,7,3 D) 5,8,9

348.Quyidagi organizmlar orasidan birlamchi konsumentlarni toping.

1) tukli; 2) ilon; 3) lochin; 4) kalina; 5) tuvaloq; 6) quyon; 7) sarisor; 8) kaltakesak; 9) qiziltikan;
10) chigirtka A) 1,2,8 **B) 5,6,10** C) 7,3,1 D) 4,8,10

349.DNK tarkibida 960 ta guanin nukleotidi bo'lib, u umumiy nukleotidlarni 40% tashkil qiladi. Shu DNK dan hosil bo'lgan oqsildagi tarkibidagi aminokislota sonini aniqlang. A) 3360 B) 2640 C) 800 **D) 400**

350.DNK tarkibida 960 ta guanin nukleotidi bo'lib, u umumiy nukleotidlarni 40% tashkil qiladi. Shu DNK dagi vodarod bog'lar sonini aniqlang **A) 3360** B) 2640 C) 2380 D) 400

351.Somatic hujayrasidagi jinsiy xromasomalar gomolog bo'lgan organizmlarni belgilang.
1) urg'ochi kaptar; 2) erkak gatteriya; 3) urg'ochi zarg'aldoq; 4) erkak shimpanze; 5) erkak drozofila;
6) erkak nandu **A) 2,4,6** B) 1,3,5 C) 3,1,6 D) 2,4,5

352.Somatic hujayrasidagi jinsiy xromasomalar gomolog bo'lmagan organizmlarni belgilang.
1) urg'ochi kaptar; 2) erkak gatteriya; 3) urg'ochi zarg'aldoq; 4) erkak shimpanze; 5) erkak drozofila;
6) erkak nandu A) 2,4,6 **B) 1,3,5** C) 3,1,2 D) 2,4,6

353.DNK molekulasining 153 nm uzunlikdagi qismida deleytsiyadan so'ng 12 juft nukleotid yo'qoldi. Mutatsiyadan keyin hosil bo'lgan DNK dan sintezlangan oqsildagi aminokislota sonini aniqlang. A) 292 **B) 146** C) 150 D) 148

354.DNK molekulasining 153 nm uzunlikdagi qismida deleytsiyadan so'ng 12 juft nukleotid yo'qoldi. Mutatsiyadan keyin hosil bo'lgan DNK dan sintezlangan oqsildagi peptid bog'lar sonini aniqlang. A) 292 **B) 145** C) 147 D) 149

355.DNK molekulasining og'irligi 90000 ga teng bo'lsa, undagi nukleotidlar sonini aniqlang. (bitta nukleotid og'irligi 300 deb olinsin)
A) 600 B) 300 C) 900 D) 100

356.DNK molekulasining og'irligi 90000 ga teng bo'lsa, shu DNK dan sintezlangan oqsildagi peptid bog'lar sonini aniqlang. (bitta nukleotid og'irligi 300 deb olinsin) A) 99 B) 199 C) 149 D**) 49**

357. DNK molekulasining og'irligi 90000 ga teng bo'lsa, shu DNK dan sintezlangan oqsildagi aminokislota sonini aniqlang. (bitta nukleotid og'irligi 300 deb olinsin) A) 100 B) 200 **C) 150** D) 50